



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDO AYLANMASI

2024- yil yanvar- noyabr oylari
uchun dastlabki ma’lumot

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi:*
(71) 202-80-44(45)



TASHQI SAVDO AYLANMASI

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Respublikada bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar- noyabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 59,4 mlrd AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 2,1 mlrd AQSH dollariga yoki 3,6 % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar - noyabr, mln AQSH dollari)

Tashqi savdo aylanmasi

2024-y.: **59 368,8** (+3,6 %)

(2023-y.: **57 310,1**)



Saldo

2024-y.: **-10 922,8** (2023-y.: **-10 901,5**)



Eksport

2024-y.: **24 223,0** (+4,4 %)

(2023-y.: **23 204,3**)

TSA dagi ulushi

59,2 %

40,8 %




Import

2024- y.: **35 145,8** (+3,0%)

(2023-y.: **34 105,8**)

QIT'ALAR KESIMIDA TSA


(2024 yil yanvar-noyabr, mln.AQSH doll)



<p><u>Yevropa</u> Eksport – 12 691,5 Import – 12 523,3 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 42,5 %</p>	<p><u>Osiyo</u> Eksport – 7 683,0 Import – 19 646,6 , Umumiy hajmga nisbatan, % da – 46,0 %</p>	<p><u>Afrika</u> Eksport – 49,4 Import – 36,0, Umumiy hajmga nisbatan, % da – 0,1 %</p>
<p><u>Shimoliy Amerika</u> Eksport – 350,0 Import – 662,6 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 1,7 %</p>	<p><u>Janubiy Amerika</u> Eksport – 19,7 Import – 472,9, Umumiy hajmga nisbatan, % da – 0,8 %</p>	<p><u>Avstraliya</u> Eksport – 0,7 Import – 2,9, Umumiy hajmga nisbatan, % da – 0,01 %</p>

AYRIM ITTIFOQ VA IQTISODIY TASHKILOTLAR BILAN TSA

(yanvar-noyabr, mlrd.AQSH doll)













TSAda eksport hajmi 24 223,0 mln AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 4,4 % ga ko'paydi) va import hajmi 35 145,8 mln AQSH dollariga (3,0% ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 10 922,8 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2024-yil yanvar-noyabr, mln AQSH dollari)

Ta'kidlash joizki, Qozog'iston O'zbekistonning eng yirik tashqi iqtisodiy hamkorlaridan biriga aylandi (Xitoy va Rossiyadan keyin). Bunga sabab quyidagilar bo'lishi mumkin: umumiy chegaraning mavjudligi, MDHning erkin savdo hududida savdo qilishi hamda so'nggi paytlarda o'zaro iqtisodiy aloqalarning keskin erkinlashtirilishi.











O'zbekiston Respublikasi jahonning 195 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (19,0%), Rossiyada (18,0%), Qozog'istonda (6,5%), Turkiyada (4,4%) va Koreya Respublikasida (3,0%) qayd etilgan.











<p>XXR</p> <p>TSA – 11 255,0</p> <p>Eksport: 1 913,0 Import: 9 342,0</p> <p> 19,0%</p>	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 10 681,5</p> <p>Eksport: 3 410,5 Import: 7 271,0</p> <p> 18,0%</p>	<p>Qozog'iston</p> <p>TSA – 3 854,7</p> <p>Eksport: 1 308,9 Import: 2 545,7</p> <p> 6,5%</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 2 635,2</p> <p>Eksport: 1 023,4 Import: 1 611,8</p> <p> 4,4%</p>	<p>Koreya Respublikasi</p> <p>TSA – 1 809,9</p> <p>Eksport: 32,6 Import: 1 777,2</p> <p> 3,0%</p>
<p>Turkmaniston</p> <p>TSA – 1 075,3</p> <p>Eksport: 110,4 Import: 964,9</p> <p> 1,8%</p>	<p>Germaniya</p> <p>TSA – 1 070,6</p> <p>Eksport: 82,3 Import: 988,3</p> <p> 1,8%</p>	<p>Fransiya</p> <p>TSA – 1 013,3</p> <p>Eksport: 700,6 Import: 312,7</p> <p> 1,7%</p>	<p>Afg'oniston</p> <p>TSA – 999,9</p> <p>Eksport: 969,4 Import: 30,5</p> <p> 1,7%</p>	<p>Hindiston</p> <p>TSA – 867,4</p> <p>Eksport: 97,0 Import: 770,4</p> <p> 1,5%</p>



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar-noyabr, mln AQSH dollari)

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
 XXR	8 333,5	12 231,4	11 255,0
<i>Eksport</i>	2 514,6	2 274,3	1 913,0
<i>Import</i>	5 818,9	9 957,0	9 342,0
 Rossiya	8 424,0	8 867,0	10 681,5
<i>Eksport</i>	2 865,9	3 006,5	3 410,5
<i>Import</i>	5 558,1	5 860,5	7 271,0
 Qozog'iston	4 202,5	4 005,4	3 854,7
<i>Eksport</i>	1 281,8	1 286,6	1 308,9
<i>Import</i>	2 920,8	2 718,8	2 545,7
 Turkiya	3 065,5	2 839,1	2 635,2
<i>Eksport</i>	1 516,0	1 175,4	1 023,4
<i>Import</i>	1 549,5	1 663,6	1 611,8
 Koreya Respublikasi	2 159,4	2 111,7	1 809,9
<i>Eksport</i>	36,9	37,2	32,6
<i>Import</i>	2 122,4	2 074,6	1 777,2
 Turkmaniston	877,5	970,1	1 075,3
<i>Eksport</i>	185,8	160,5	110,4
<i>Import</i>	691,7	809,6	964,9
 Germaniya	948,6	962,4	1 070,6
<i>Eksport</i>	92,1	72,0	82,3
<i>Import</i>	856,5	890,5	988,3
 Fransiya	311,4	831,6	1 013,3
<i>Eksport</i>	69,5	385,9	700,6
<i>Import</i>	241,9	445,8	312,7
 Afg'oniston	688,8	784,1	999,9
<i>Eksport</i>	680,4	774,6	969,4
<i>Import</i>	8,4	9,5	30,5
 Hindiston	625,8	689,7	867,4
<i>Eksport</i>	31,9	105,7	97,0
<i>Import</i>	593,9	584,1	770,4

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
AQSH	392,3	610,3	773,3
 <i>Eksport</i>	60,3	142,4	279,3
<i>Import</i>	332,0	467,9	494,1
Qirg'iz Respublikasi	1 151,7	877,7	739,5
 <i>Eksport</i>	898,0	599,8	476,6
<i>Import</i>	253,6	277,9	262,9
Belarus	478,1	569,8	646,2
 <i>Eksport</i>	111,7	114,7	150,1
<i>Import</i>	366,4	455,1	496,1
Tojikiston	605,3	680,0	627,1
 <i>Eksport</i>	460,8	538,2	491,9
<i>Import</i>	144,5	141,8	135,2
BAA	472,7	566,7	590,7
 <i>Eksport</i>	94,6	224,2	223,9
<i>Import</i>	378,1	342,5	366,8
Litva	449,3	566,8	561,5
 <i>Eksport</i>	83,3	129,1	163,2
<i>Import</i>	366,0	437,6	398,3
Eron	400,5	468,1	448,0
 <i>Eksport</i>	129,4	170,8	149,8
<i>Import</i>	271,1	297,3	298,1
Braziliya	500,8	624,1	417,3
 <i>Eksport</i>	1,2	4,1	11,7
<i>Import</i>	499,6	620,0	405,5
Chexiya	150,8	322,4	407,4
 <i>Eksport</i>	27,0	47,9	50,2
<i>Import</i>	123,8	274,5	357,2
Italiya	348,2	468,4	405,8
 <i>Eksport</i>	51,2	69,0	41,0
<i>Import</i>	297,0	399,4	364,9

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI *

(2024-yil yanvar-noyabr, mln AQSH doll.)




Respublika tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 38,8 % ulush bilan 23 023,8 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Surxondaryo viloyati 0,6 % ulush bilan 365,1 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo‘yicha rasmiy statistik ma‘lumotlar, O‘zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo‘yicha taqsimlanmagan

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar- noyabr, ulushi % da, hajmi mln AQSH dollarida)



2024-yil yanvar-noyabr oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 35,4 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023 - yilning mos davriga nisbatan 3,0 % ga ko‘paydi.

O‘zbekiston bilan savdo qilayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti o‘sishi mazkur mamlakatlar iste‘molchilari tomonidan respublika eksportiga bo‘lgan talabning oshishiga olib kelishi mumkin.

O‘zbekistonning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024- yilning yanvar- noyabr oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,0 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 64,6 % ni tashkil etdi.

O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, 21 032,1 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 8 266,2 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 12 765,9 mln AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)

Rossiya – 50,8



Qozog'iston – 18,3



Turkmaniston – 5,1



Qirg'iz Respublikasi – 3,5



Belarus – 3,1



Tojikiston – 3,0



Ozarbayjon – 1,1



Ukraina – 0,9



Armaniston – 0,1




Moldova – 0,1



MDHning erkin savdo hududida savdo qilish O'zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasiga ijobiy tas'ir qilmoqda.

O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (50,8%), Qozog'iston (18,3%) hamda Turkmaniston (5,1%) davlatlari bilan qayd etildi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YEOIIGAA‘ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar- noyabr, mln AQSH dollari)



O‘zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 15947,4 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 5365,1 mln AQSH dollari, import hajmi esa 10582,3 mln AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a‘zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog‘iston, Armaniston va Qirg‘iz Respublikasi) o‘rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta‘minlangan bo‘lib, yagona bojxona tizimiga ega bo‘lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKSPORTI


(2024-yil yanvar-noyabr)

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 7 251 taga yetdi va ular tomonidan 17 596,4 mln AQSH dollari (*nomonetar oltindan tashqari*) qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 16,9% ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024-yil yanvar-noyabr)



*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlar XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	MIn AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	23 204,3	24 223,0	130,6	104,4	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 644,2	1 970,6	112,1	119,8	7,1	8,1
Ichimliklar va tamaki	111,8	127,0	112,7	113,6	0,5	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	284,4	290,9	79,7	102,3	1,2	1,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	870,2	1 218,1	73,5	140,0	3,8	5,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	11,9	39,0	57,4	3,3 b.	0,1	0,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 207,0	1 504,3	97,7	124,6	5,2	6,2
Sanoat tovarlari	3 751,2	3 885,2	94,8	103,6	16,2	16,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	1 208,9	1 098,5	138,2	90,9	5,2	4,5
Turli xil tayyor buyumlar	1 100,6	956,0	111,0	86,9	4,7	3,9
Boshqa tovarlar	8 190,6	6 698,9	2,3 b.	81,8	35,3	27,7
<i>shu jumladan: nomonetar oltin</i>	8 153,8	6 626,6	2,3 b.	81,3	35,1	27,4
Xizmatlar	4 823,5	6 434,4	119,5	133,4	20,8	26,6

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 73,4% ni tashkil etib, ular boshqa tovarlar (27,7%), sanoat tovarlari (16,0%), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (8,1%) va kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (6,2%) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI
TARKIBI (2024- yil yanvar-noyabr)

 XSST bo‘limi nomi	Mln AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 970,6	119,8
Sabzavotlar va mevalar	1 447,7	130,8
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	353,6	79,8
Go’sht va go’sht mahsulotlari	45,3	14,7 b.
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	43,8	3,4 b.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	23,2	92,0
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	23,0	91,0
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	15,4	107,6
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	9,4	134,0
Tirik hayvonlar	7,2	146,9
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo‘lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	1,9	132,0
Ichimliklar va tamaki	127,0	113,6
Tamaki va tamaki mahsulotlari	78,1	144,7
Ichimliklar	48,9	84,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	290,9	102,3
To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	110,5	97,6
Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	66,7	139,9
O‘g‘itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	30,7	121,2
Qog‘oz massasi va makulatura	29,7	75,2
Metall rudalari va metall parchalari	28,5	66,0
Moy olinadigan urug‘lar va moy olinadigan mevalar	20,9	174,1
Tabiiy kauchuk	2,2	2,8 b.
Probka va yog‘och-taxtalar	1,8	64,5
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	1 218,1	140,0
Tabiiy yoki sun‘iy gaz	593,4	116,5
Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar	525,3	176,7
Elektr toki	96,1	153,0
Ko‘mir, koks va briketlar	3,3	4,3 b.
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	39,0	3,3 b.
O‘simlik moylari va yog‘lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	38,9	330,5
Hayvonlar va o‘simliklar moylari va yog‘lari, qayta ishlangan	0,1	67,7
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	1 504,3	124,6
Noorganik kimyo moddalari	809,2	166,5
O‘g‘itlar	318,5	102,5
Birlamchi shakldagi plastmassalar	212,5	90,2
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	49,8	72,2
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	32,2	92,5
Birlamchi shaklda bo‘lmagan plastmassalar	26,6	165,0
Bo‘yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo‘yoqlar	23,1	113,7
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	18,2	84,7
Organik kimyo moddalari	14,2	109,9


XSST bo'limi nomi	MIn AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	3 885,2	103,6
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 837,2	97,0
Rangli metallar	1 403,7	109,2
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	203,0	135,3
Cho'yan va po'lat	171,2	95,5
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	145,7	121,0
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	46,5	75,1
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	39,2	103,3
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	20,9	181,0
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	17,8	160,1
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	1 098,5	90,9
Avtomobillar (havo yostiqchalaridagi transport vositalari ham)	374,1	81,8
<i>shu jumladan: avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	272,5	79,0
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	208,7	125,6
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari	188,9	90,1
Boshqa transport uskunolari	130,0	136,3
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	73,3	103,8
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	66,4	90,7
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	47,3	44,0
Kanselyariya tovarlari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	7,2	28,2
Metallarni qayta ishlash mashinalari	2,7	82,5
Turli xil tayyor buyumlar	956,0	86,9
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	788,4	85,5
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	98,0	98,3
Poyabzal	19,5	62,7
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	16,6	130,3
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	16,5	117,5
Blokli binolar, kanalizatsiya-suv quvurlari, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlagichlar	10,0	90,8
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	6,1	74,6
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar	0,9	43,9
Boshqa tovarlar	6 698,9	81,8
Oltin, monetar bo'lmagan (rudalari va konsentratlaridan tashqari)	6 626,6	81,3

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda – tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda – tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,9 % ga ko'paygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-noyabr, ulushi % da, hajmi mln AQSH)



2024-yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Afg'oniston, Fransiya va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 40,5 % ni tashkil etdi.



RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024-yil yanvar-noyabr)






O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI (yanvar-noyabr)

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Egallab turgan o‘rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya	3 006,5	3 410,5	104,9	113,4	1	1
XXR	2 274,3	1 913,0	90,4	84,1	2	2
Qozog‘iston	1 286,6	1 308,9	100,4	101,7	3	3
Turkiya	1 175,4	1 023,4	77,5	87,1	4	4
Afg‘oniston	774,6	969,4	113,8	125,2	5	5
Fransiya	385,9	700,6	5,6 b.	181,6	8	6
Tojikiston	538,2	491,9	116,8	91,4	7	7
Qirg‘iz Respublikasi	599,8	476,6	66,8	79,5	6	8
AQSH	142,4	279,3	2,4 b.	196,1	13	9
Pokiston	246,4	275,2	157,4	111,7	9	10
BAA	224,2	223,9	2,4 b.	99,9	10	11
Ozarbajjon	119,9	190,9	100,9	159,3	16	12
Litva	129,1	163,2	155,0	126,4	14	13
Belarus	114,7	150,1	102,7	130,9	17	14
Eron	170,8	149,8	131,9	87,8	11	15
Gonkong	13,1	136,5	187,8	10,4 b.	43	16
Buyuk Biritaniya	126,9	133,6	150,6	105,3	15	17
Turkmaniston	160,5	110,4	86,3	68,8	12	18
Latviya	94,3	102,8	97,8	109,0	19	19
Hindiston	105,7	97,0	3,3 b.	91,8	18	20

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI *

(2024-yil yanvar-noyabr, mln AQSH doll.)



2024-yil yanvar-noyabr

2023-yil yanvar-noyabr

Respublika eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 20,7 % bilan 5 005,2 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Jizzax viloyati 0,8 % bilan 184,2 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-noyabr oylarida 1 899,0 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 16,6 % yoki 269,9 ming tonnaga ko'paydi.

2024- yil yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 1 415,1 mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 30,0 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 5,8 % ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (42,1 %), Qozog'iston (12,7 %), Pokiston (12,6 %) hamda Afg'oniston (8,0 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.















MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-noyabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Uzum</p> <p>174,7 mln AQSH dollari</p> <p>205,5 ming tonna</p> <p>2,2 b. ↑</p>	<p>Karam</p> <p>47,6 mln AQSH dollari</p> <p>169,8 ming tonna</p> <p>87,3 % ↑</p>	<p>Piyoz</p> <p>65,6 mln AQSH dollari</p> <p>337,7 ming tonna</p> <p>20,6 % ↑</p>	<p>Gilos</p> <p>70,3 mln AQSH dollari</p> <p>32,2 ming tonna</p> <p>33,0 % ↑</p>
<p>Uzum quritilgan</p> <p>64,8 mln AQSH dollari</p> <p>43,8 ming tonna</p> <p>5,3 % ↑</p>	<p>O'rik</p> <p>62,2 mln AQSH dollari</p> <p>64,8 ming tonna</p> <p>53,0 % ↑</p>	<p>No'xat</p> <p>5,8 mln AQSH dollari</p> <p>18,0 ming tonna</p> <p>14,8 b. ↑</p>	<p>Olxo'ri quritilgan</p> <p>33,7 mln AQSH dollari</p> <p>23,9 ming tonna</p> <p>- 19,3 % ↓</p>
<p>Olxo'ri</p> <p>26,4 mln AQSH dollari</p> <p>32,9 ming tonna</p> <p>18,1 % ↑</p>	<p>Shaftoli</p> <p>96,9 mln AQSH dollari</p> <p>103,5 ming tonna</p> <p>44,2 % ↑</p>	<p>Yeryong'oq</p> <p>18,2 mln AQSH dollari</p> <p>11,5 ming tonna</p> <p>79,8 % ↑</p>	<p>Sabzi</p> <p>29,6 mln AQSH dollari</p> <p>125,2 ming tonna</p> <p>86,2 % ↑</p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024-yil yanvar-noyabr)

Davlatlar	Ming tonna	MIn AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Rossiya	776,5	595,2	42,1
 Qozog'iston	496,6	179,5	12,7
 Pokiston	117,3	177,7	12,6
 Afg'oniston	60,9	112,5	8,0
 XXR	123,2	108,3	7,7
 Qirg'iz Respublikasi	143,2	54,7	3,9
 Turkiya	23,0	40,2	2,8
 Belarus	21,4	18,5	1,3
 Ozarbayjon	10,0	18,3	1,3
 Gruziya	14,6	13,5	1,0
 Eron	10,7	13,0	0,9
 Iroq	26,5	11,5	0,8
 Ukraina	11,1	9,3	0,7
 BAA	12,4	8,1	0,6
 Germaniya	4,0	6,4	0,4
 Boshqa davlatlar	47,6	48,2	3,4

* qiymat ifodasidan

2024- yil yanvar-noyabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiyaga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 42,1 % ini), bu esa Pokiston eksport hajmiga nisbatan 3,4 barobarga ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024- yil yanvar-noyabr oylari yakuni bo‘yicha 2 651,4 mln AQSH dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 10,9 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 6,4 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (43,3 %), tayyor to‘qimachilik mahsulotlari (39,2%) asosiy ulushni egallagan.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI 2024- yil yanvar-noyabr, mln AQSH dollari, % da.




2 651,4 (2023 y.: 2 831,5)

Jami



1 147,1 (1 140,7)

Ip kalava



1 038,1 (1 144,0)

Tayyor to‘qimachilik mahsulotlari



271,4 (293,9)

Trikotajmato



134,9 (161,4)

Gazlamalar




38,2 (56,9)

Paypoq mahsulotlari

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'mini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-noyabr, mln AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 6434,4 mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 26,6 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 33,4 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (48,6 %), transport (36,7 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (8,2 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (3,1%) hissasiga to'g'ri kelgan. Shu bilan birga, boshqa xizmatlar (3,4%)ni tashkil etib, tarkibida eng yuqori ulushlar sug'urta va pensiya ta'minoti xizmatlari (1,0%), moliyaviy xizmatlar (0,9 %) qurilish xizmatlari (0,6 %) hissasiga to'g'ri keldi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi 35 145,8 mln AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,0% ga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (34,6%), sanoat tovarlari (15,7%) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (12,2%) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-noyabr)



9,5%

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,6%

2. Ichimliklar va tamaki



3,0%

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



10,3%

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar



0,9%

5. Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar



12,2%

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



15,7%

7. Sanoat tovarlari



34,6%

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



3,8%

9. Turli xil tayyor buyumlar



0,1%

10. Boshqa tovarlar



9,3%

11. Xizmatlar

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 75,5 mln AQSH dollariga ko'paydi va 31 894,7 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 3 251,0 mln AQSH dollariga yetdi.

*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	34 105,8	35 145,8	123,3	103,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3 158,4	3 333,7	103,4	105,6	9,3	9,5
Ichimliklar va tamaki	171,8	217,0	135,7	126,3	0,5	0,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 033,1	1 042,5	86,6	100,9	3,0	3,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2 245,4	3 623,8	141,7	161,4	6,6	10,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	381,5	330,4	113,6	86,6	1,1	0,9
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	4 446,6	4 280,2	112,8	96,3	13,0	12,2
Sanoat tovarlari	5 728,9	5 525,7	109,3	96,5	16,8	15,7
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	13 232,9	12 155,3	153,4	91,9	38,8	34,6
Turli xil tayyor buyumlar	1 339,4	1 339,6	113,5	100,0	3,9	3,8
Boshqa tovarlar	81,5	46,4	146,7	57,0	0,2	0,1
Xizmatlar	2 286,4	3 251,0	98,5	142,2	6,7	9,3

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-noyabr)


 XSST bo'limi nomi	MIn AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3 333,7	105,6
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	836,0	81,0
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	570,4	111,6
Go'sht va go'sht mahsulotlari	452,1	146,8
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	379,6	110,3
Sabzavotlar va mevalar	343,4	113,7
Hayvonlar uchun ozuqalar	255,9	125,3
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	207,3	107,6
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	147,0	99,2
Tirik hayvonlar	106,1	119,4
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	35,9	128,5
Ichimliklar va tamaki	217,0	126,3
Ichimliklar	154,7	131,5
Tamaki va tamaki mahsulotlari	62,3	115,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 042,5	100,9
Probka va yog'och-taxtalar	416,0	109,3
Metall rudalari va metall parchalari	281,4	89,5
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	77,6	101,5
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	73,0	135,4
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	61,9	90,2
Qog'oz massasi va makulatura	52,2	114,6
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	46,5	75,7
Tabiiy kauchuk	33,4	105,4
Terilar, teri xomashyosi va mo'yna, ishlov berilmagan	0,4	141,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3 623,8	161,4
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1 808,2	130,6
Tabiiy yoki sun'iy gaz	1 551,8	2,8 b.
Ko'mir, koks va briketlar	155,4	82,2
Elektr toki	108,4	99,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	330,4	86,6
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	279,5	86,9
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	49,8	85,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	4 280,2	96,3
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 570,0	108,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	725,3	88,3
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	592,4	104,6
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	466,9	102,4
Organik kimyo moddalari	260,6	89,3
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	257,8	91,1
Noorganik kimyo moddalari	255,3	80,1
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	96,1	95,9
O'g'itlar	55,9	35,9

XSST bo'limi nomi	Mln AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	5 525,7	96,5
Cho'yan va po'lat	2 448,1	105,6
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	739,2	89,8
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	530,5	85,0
Rezina buyumlari	400,3	80,1
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	372,6	83,8
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	367,2	107,0
Rangli metallar	344,5	110,8
Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	321,6	88,5
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	1,8	102,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	12 155,3	91,9
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham) shu jumladan:	2 961,7	74,4
<i>asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan dvigatelli avtomobillar va boshqa transport vositalari</i>	1 184,1	75,7
<i>avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	1 136,3	86,7
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	2 267,2	87,2
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	1 809,3	94,5
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	1 792,4	112,6
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	996,6	120,1
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	954,5	119,4
Boshqa transport uskunolari	688,7	81,7
<i>shu jumladan: samolyotlar va uchish apparatlari, mexanik (vertolyotlardan tashqari)</i>	508,0	67,4
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	432,7	105,7
Metallarni qayta ishlash mashinalari	252,3	94,5
Turli xil tayyor buyumlar	1 339,6	100,0
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	447,5	104,2
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	400,9	90,0
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	149,0	86,5
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	140,9	99,4
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	120,6	155,4
Poyabzal	38,6	115,6
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	21,0	125,8
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	21,0	92,5

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-noyabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 36,3 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,7 % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, ulushi % da, hajmi mln AQSH dollarida)



2024- yil yanvar-noyabr oylarida O'zbekiston Respublikasi 169 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Turkiya, Turkmaniston va Germaniya) jami importning 2/3 qismini tashkil etdi.



RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-noyabr)






O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O‘SISH SUR‘ATLARI (yanvar-noyabr)

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O‘sish sur‘ati, % da		Umumiy hajmdagi o‘rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
XXR	9 957,0	9 342,0	171,1	93,8	1	1
Rossiya	5 860,5	7 271,0	105,4	124,1	2	2
Qozog‘iston	2 718,8	2 545,7	93,1	93,6	3	3
Koreya Respublikasi	2 074,6	1 777,2	97,7	85,7	4	4
Turkiya	1 663,6	1 611,8	107,4	96,9	5	5
Germaniya	890,5	988,3	104,0	111,0	6	6
Turkmaniston	809,6	964,9	117,1	119,2	7	7
Hindiston	584,1	770,4	98,3	131,9	9	8
Belarus	455,1	496,1	124,2	109,0	11	9
AQSH	467,9	494,1	140,9	105,6	10	10
Braziliya	620,0	405,5	124,1	65,4	8	11
Litva	437,6	398,3	119,6	91,0	13	12
BAA	342,5	366,8	90,6	107,1	15	13
Italiya	399,4	364,9	134,5	91,4	14	14
Chexiya	274,5	357,2	2,2 b.	130,1	20	15
Fransiya	445,8	312,7	184,3	70,1	12	16
Eron	297,3	298,1	109,7	100,3	16	17
Yaponiya	207,3	280,7	102,1	135,4	23	18
Qirg‘iz Respublikasi	277,9	262,9	109,6	94,6	19	19
Polsha	284,6	252,6	150,5	88,7	18	20



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI HAJMI (2024-yil yanvar-noyabr, mln AQSH doll.)




2024-yil yanvar-noyabr

2023-yil yanvar-noyabr

Respublika importi tarkibida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 51,3% bilan 18 018,6 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Surxondaryo viloyati 0,3% bilan 121,7 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-noyabr, mln AQSH dollarida)



2024-yilning yanvar-noyabr oyi yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 3 251,0 mln AQSH dollarini yoki jami import hajmining 9,3 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 42,2 % ga ko'paydi.


Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa safarlar (turizm xizmatlari) (52,6 %), transport xizmatlari (20,1 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (9,4 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (6,0 %)ga tegishli bo'ldi.

Shuningdek, boshqa xizmatlar ulushi jami xizmatlar importining 11,9% ini tashkil etib, uning tarkibida yuqori ulushlarni boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (3,9%), texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (3,4%), sug'urta va pensiya ta'minoti xizmatlari (2,1 %) va boshqalar tashkil etdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI

2024- yil yanvar-noyabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 5 525,7 mln AQSH dollarini tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 3,5% ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 15,7% ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-noyabr)

1 972,2 mln AQSH doll.
Ulushi – 35,7 %



Rossiya

1 806,8 mln AQSH
doll. *Ulushi – 32,7%*



XXR

675,2 mln AQSH doll.
Ulushi – 12,2 %



Qozogʻiston

266,6 mln AQSH doll.
Ulushi – 4,8 %



Turkiya

137,6 mln AQSH
doll. *Ulushi – 2,5 %*



Koreya
Respublikasi

Sanoat mahsulotlari importi asosan choʻyan yoki legirlanmagan poʻlat (2 448,1 mln AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (739,2 mln AQSH dollari), yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga oʻxshash mahsulotlar (530,5 mln AQSH dollari), rezina buyumlari (400,3 mln AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.